

BUG'DOYNING BOBUR NAVIDA O'SIMLIK BO'YI VA YOTIB QOLISHGA CHIDAMLILIGIGA O'G'IT ME'YORINI TA'SIRI.

*Y.A.Matyakubova, dots.,
Urganch davlat universiteti, Urganch*

*Z.B.Alloberganova, dots.,
Urganch davlat universiteti, Urganch*

*D.M.Qabulova,
magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch*

*D.A.Mambetsoburova, talaba,
Urganch davlat universiteti, Urganch*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8033311>

Annotation. *In this maqila, the Beaver variety of soft wheat grown in Khorezm soil climates has been studied for its effect on fertilizer norm on plant height and resistance to laying. In this case, the effect of different fertilizer norms on the plant height of the varieties was determined, with OGE in three options: organic fertilizer (humus manure) in the amount given to 30 t/ha, mineral fertilizer in the option with N180P90K60, and N180p90k60 + manure in the options when mineral fertilizer and organic fertilizer (humus manure) were given together.*

Keywords: *breeder, wheat, bread quality, milk ripening, productivity, bushy grain, bushy grain.*

Annotatsiya. *Ushbu maqilada Xorazm tuproq iqlim sharoitida yetishtirilayotgan yumshoq bug'doyning Bobur navini o'simlik bo'yi va yotib qolishga chidamliligiga o'g'it me'yorini ta'siri o'rganilgan. Bunda turli o'g'it me'yorlarini navlarning o'simlik bo'yiga ta'siri aniqlangan bolib, o'git uch variantda: organik o'g'it (chirindi go'ng) gektariga 30 t/ga berilgan miqdorida, mineral o'g'it N₁₈₀P₉₀K₆₀ solingan variantda va N₁₈₀P₉₀K₆₀ + Go'ng 30 t/ga mineral o'g'it va organik o'g'it (chirindi go'ng) birgalikda berilganda variantlarda o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *seleksioner, bug'doy, non sifati, sut pishish, mahsuldorlik, boshhoqli don, boshhoqli don.*

Yumshoq bug'doy butun dunyo qishloq xo'jaligi ekinlari orasida eng muhim boshhoqli don ekinlaridan biri hisoblanib, non va non maxsulotlari ishlab chiqarishda

asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bug'doy ekiladigan jami ekin maydonlarining 17 foizini egallaydi va har yili 724 million tonna don hosili yetishtiriladi.

Bug'doy - jaxonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi eng muhim va asosiy ekin turi hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda insonlar uchun zarur bo'lgan oqsil kaloriyasining qariyb 40 foizidan ortig'i bevosita bug'doy mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakatimiz aholi sonining har yili yildan yilga oshib borishi bug'doy doni yetishtirishda yuqori hosilli va don sifatiga ega bo'lgan bug'doy navlarini yaratish ustida seleksioner olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirishni taqazo etadi [1].

Respublikada bug'doy asosan non sifatida istemol qilinishini e'tiborga olsak, ikkinchi asosiy gen bu sifatni ta'minlovchi gen bo'lishi zarurdir. Shunday navni yaratishda fanning eng so'nggi yutuqlari bo'lgan biotexnologiya va gen muxandisligini seleksiya jarayoniga tatbiq qilish amaliy ahamiyatga egadir. Jaxonda bugungi kunda shunday yo'llar bilan sintetik bug'doy navlari yaratilmoqda. Bu nav namunalari maxalliy seleksiyaga jalb qilish uchun xalkaro tashkilotlar bilan urug'lik materiallarini almashlash ishlari olib borilmoqda.

Bug'doy o'simligining yotib qolishi ko'p hollarda sut pishish yoki o'suv davrida ro'y berishi mumkin. Bunday holatda o'simliklar bir-birini soyalab qo'yadi, yotib qolish natijasida fotosintezning sekinlashuvi donning puch yoki mayda bo'lishiga olib keladi. Bug'doy o'simligining pishish davrida yotib qolishi don hosilini yig'ishtirib olishni ancha qiyinlashtiradi. Ba'zi bug'doy navlarining bo'yi baland, ammo baquvvat bo'lmagan poyaga ega bo'lib, boshog'i salmoqli bo'ladi. Bunday paytda kuchsiz shamol ta'sirida ham ularning yotib qolishi kuzatiladi.

Yumshoq bug'doyning intensiv tipdagi yangi navlarini yaratishda boshlang'ich manba sifatida ko'pincha kalta poyali shakllardan foydalaniladi. Bu ma'lum maydondagi o'simliklar sonini oshirish hisobiga yotib qolmaydigan serhosil va yuqori sifatli don yetishtirishga imkon beradi. Bug'doy ekinining yotib qolishi kuchli shamol, do'l, sel va boshqa tabiiy holatlar ta'sirida ham bo'lishi mumkin.

Yotib qolgan bug'doyni o'rib olishda katta qiyinchiliklar yuzaga keladi va donning ko'p qismi yo'qotiladi.

Bug'doyni sug'oriladigan sharoitlarda parvarish qilganda, ularning yotib qolishi ayniqsa keng tarqalgan. Buning asosiy sababi, uning jadal tuplanishi va o'sishi davomida yorug'likning yetishmasligidir [1].

Sug'oriladigan yerlar sharoitida bug'doyning yotib qolishga chidamli navlari yuqori samara beradi. Yotib qolganligi tufayli hosilning 25-60% ga kamayishi, don sifatini, 1000 dona donining vazni, naturasini pasayishi, kasalliklar bilan zararlanishi kabi ko'rsatkichlar tajribalarda kuzatilgan.

Yuqori mahsuldor, yotib qolishga chidamli navlar poyaning yuqori anatomik elementlari bilan xarakterlanadi. O'rtacha mahsuldorlikka ega bo'lgan namunalarda esa bu ko'rsatkichlar o'rta va past bo'ladi. Bu ko'rsatkich uzun va past bo'yli

shakllarda bir xil darajada bog'liq bo'lmaydi. Bug'doy o'simligining yotib qolishga chidamliligini oshirishda asosiy e'tibor kalta bo'yli, poyasi va ildiz tizimi baquvvat bo'lgan shakllarga beriladi.

G.O.Tomm va boshqalarning [3] tajribalarida mineral o'g'itlarning me'yordan ko'p berilishi ham navning yotib qolishga chidamliligini kamaytiradi.

Taxlil natijalarida turli o'g'it me'yorlarini navlarning o'simlik bo'yiga ta'siri aniqlandi. O'simlik bo'yi Bobur navida 88,3 sm bo'lganligi qayid etildi. Birinchi variant organik o'g'it (chirindi go'ng) gektariga 30 t/ga miqdorida berilganda eng yuqori ko'rsatkich 85,6±0,13 sm natija qayid etganligi aniqlandi. Ikkinchi faqat mineral o'g'it N₁₈₀P₉₀K₆₀ solingan variantda o'simlik bo'yi biroz ko'tarilganligi qayid etilib 89,2±2,85 sm bo'lganligi kuzatildi.

Uchinchi variantda N₁₈₀P₉₀K₆₀ + Go'ng 30 t/ga mineral o'g'it va organik o'g'it (chirindi go'ng) birgalikda berilganda birinchi va ikkinchi variantga nisbatan o'simlik bo'yi oshganligi qayid etilib, 89,2±2,85 sm ni tashkil etganligi aniqlandi. O'simlik bo'yining yuqori bo'lishida o'g'itning tarkibi va meyori oshib borgan sari o'simlik belgilariga ijobiy ta'sir qilishi bilan izoxlash mumkin.

O'simlikni yotib qolishga chidamlilik ko'rsatkichi o'rganilganda ushbu belgisi bo'yicha chidamli ekanligi qayid etildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Мамеев, В.В. Влияние гуминовых и минеральных удобрений на урожайность озимой пшеницы. / В.В. Мамеев, И.В. Сычева, С.М. Сычев // Агрехимический вестник. - 2015 - №5. - С.6-9.
2. Siddiqui, M. H., Iqbal, M. A., Wajid, N., Imtiaz, H., and Khaliq, A. (2019). Bio-economic viability of rainfed wheat (*Triticum aestivum* L.) cultivars under integrated fertilization regimes in Pakistan. *Custos e Agronegocio* 15, 81-96.
3. Tomm G.O., A.D.Didonet., J.L.Sandri. and M.I.Frizon. "Lodging in wheat: relationships with soil fertility and plant characters in southern Brazil". 6th International Wheat Conference. Abstr. Budapest. H. 5-9 June. 2000. p-85.